

**PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHGA
DOIR QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA**

Abdug'aniyeva Zulkumor Abdurashid Qizi
Farg'onan viloyati Yuridik texnikumi 1-Bosqich talabasi
Rishton tumani DXM amaliyotchisi

Annotatsiya: *maqolaning mazmun mohiyati shundan iboratki, Professional ta'lismizini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lismiz bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish to'g'risida fikr mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *professional ta'lismi, YUNESKO, kadrlar tayyorlash, kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar.*

O'zbekistonda 2019 yildan boshlab ilk bor milliy va tarmoq ixtisoslashuv tizimi, kasb va mutaxassisliklar bo'yicha professional standartlar hamda tabaqlashtirilgan ta'lismi standarti va dasturlari joriy etilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mehnat bozori bilan ta'lismi sohasi integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lismi sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lismi tizimini isloq qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, professional ta'lismi dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'larning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashmaganligi, o'quv jarayoniga O'zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlariga to'sqinlik qilmoqda. 2020/2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'larning xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o'rinnarda — Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lismi hamda tabaqlashtirilgan ta'lismi dasturlari joriy etiladigan ta'lismi muassasalari tarmog'i tashkil etilsin. kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3 yoki 4-darajasiga mos ta'lismi dasturlarini tamomlagan, "Hayot davomida ta'lismi olish" prinsipi asosida kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan shakllantirilgan guruhlarda kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo'limgan muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lismi shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi; o'rta maxsus ta'lismi dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat

ta'lism yo'naliishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdag'i suhbat orqali oliy ta'lism muassasalarida 2-kursdan o'qishini davom ettirish huquqiga ega bo'ladi; joriy saqlash, faoliyatni yuritish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va kadrlar tayyorlash xarajatlari tegishli vazirlik, idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari, o'quvchilarni davlat buyurtmasi va to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi; boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lism muassasalariga Xalqaro tasniflagich bo'yicha asosiy ta'lism dasturlaridan tashqari quyi darajadagi ta'lism dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash huquqi beriladi; tizimda mos ravishda boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lism dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlardan iborat professional ta'lism muassasalarini tarmog'i tashkil etiladi; kasb-hunar maktablarida: kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lism shaklida amalga oshiriladi; joriy saqlash, faoliyatni yuritish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va kadrlar tayyorlash xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi; O'zbekistonda endi yangi professional ta'limga birinchi marta har bir mutaxassisning xalqaro me'yordarga mos malaka darajasini belgilab berishga asos bo'ladigan hujjat — Milliy malaka tizimi qabul qilindi. Iqtisodiyotning har bir sohasi bo'yicha tarmoq malaka tizimlari belgilandи.

Ayni paytda har bir ish o'rni va lavozimning vazifalari, tasnifi va uni samarali, muvaffaqiyatli bajarish uchun lozim bo'lgan ko'nikma, bilim va layoqatlilik yoritilgan malaka talablarining yangi formatdag'i me'yoriy asoslari yaratilmoqda. endi professional ta'lism dasturlarining mazmuni, ta'lism natijalari, ta'lismning sifati shu me'yoriy asoslarga muvofiq shakllantiriladi. Bu tizim biz tayyorlayotgan mutaxassislarning ham mahalliy, ham xorijiy mehnat bozori o'zgarishlariga moslasha olishiga imkoniyat yaratadi. Ustiga-ustak, ayni paytda mehnat bozorida raqobat muhitini ancha keskinlashgan, korxonalarining ishchi yoki mutaxassis yollash tizimlari takomillashgan, talablar mutlaqo o'zgargan.

Bu holatni oddiy qilib tushuntiradigan bo'lsak, endi ish beruvchi faqat diplom bilan kifoyalanmayapti. Qo'lingdan nima keladi, boshqalardan nima ustunliging bor, deb so'ralyapti. Agar rasmiy tilda ifoda etsak, ish beruvchi tasdiqlangan malaka darajasi, baholangan layoqatlilikni talab qilyapti. Qolaversa, bugun mehnat bozorida raqobatning asosiy sharti ham shu.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.<https://yuz.uz/ru>
2. Professional Ta'lism